

*Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi*

*katta ilmiy hodimi. Xusainova Muxabbat.*

Insoniyat tamadduni bugungi kunga qadar rivojlanishning bir necha bosqichlarini boshidan kechirdi. Insoniyat yaratilgandan shu kungacha uning tafakkurida, kundalik hayotida ma'daniy, ma'naviy jihatdan juda katta rivojlanish ro'y berdi. Turli tillar, turli millatlar, turli diniy e'tiqodlar, turli madaniyatlar vujudga keldi va yana qaysidur madaniyatlar, etiqodlar, elatlar zavolga yuz tutib tarix qariga singib ketdi. Xalqlar madaniyati, e'tiqodi, tillarining bir birlaridan farqli tarzda vujudga kalishi avvalo ular yashab turgan geografik joylar hamda u yerdagi shart-sharoitlar ta'siridan vujudga keldi, rivojlandi yoki turli o'zgarishlarga yuz tutdi. Ko'p hollarda etnik, siyosiy va ma'daniy jihatdan yirik bo'lgan qabilalar yoki elatlar o'zlariga nisbatan kichik qabilalarga ta'sirlari oshib borishi natijasida yangi madaniyatlar, yangi xalqlar, yangi tillar vujudga keldi. Jumladan qadimda O'rta Osiyo hududida mavjud bo'lgan madaniyat o'rniga Ellinizm (ellin) madaniyati vujudga keldi. Ellinizm - Makedoniya, Yunoniston, O'rta dengizning sharqiy sohillari, G'arbiy Osiyo, Qora dengiz atrofidagi mamlakatlar tarixining Aleksandr (Iskandar) istilosi (miloddan avvalgi 334-323 yillar)dan miloddan avvalgi 30 yilda Misr Rim qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilgan paytgacha o'tgan davr. "Ellin" atamasi ilm- fanda dastlab nemis olimi I.G. Droyzenning 1836-1843 yillarda chop etilgan 2 jildli "Ellinizm tarixi" asarida qo'llangan va ushbu atama orqali ellinlarning Sharq mamlakatlaridagi hukmronligi va ular madaniyatining Sharq xalqlari madaniyati bilan uyg'unlashib hosil qilgan yangi madaniyat tushunilgan. Bu madaniyatlarning uyg'unligini hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan tarixiy me'moriy obodalar va arxeologik topilmalar: moddiy, mayishiy osori atiqalar, kulolchilik, zargarlik, hunarmandchilik buyumlari, devoriy sur'atlar, haykallar, mehnat qurollari, me'moriy obyektlar va boshqa shunga o'xshash qimmatli topilmalar eng qimmatli

manbalar misolida kuzatishimiz mumkin. Qisqa qilib aytganda ellin madaniyati bu sharq va g'arb xalqlari madaniyatining qorishmasi deyish mumkin. Bugungi kunda O'rta Osiyo hududida antik davrga oid bo'lgan minglab tarixiy maskanlar mavjud. Jumladan O'zbekiston bunday tarixiy obyektlarga boyligi bilan butun dunyo olimlariyu sayyolarini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Samarqand shahridagi qadimiy Afrosiyob shaxri qoldiqlari, Termizdagi Zurmala (mil.av 2-asr), Ayritom (milodiy 1-4 asr), Denovdagi Xolchayon (mil.av 4-asr), Sho'rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepa yodgorligi, Sherobod tumanidan topilga Jarqo'ton (mil.av 2-ming yillik), Kampirtepa, Qoraqalpog'iston hududida joylashgan Tuproqqal'a kabi antik maskan xarobalari yurtimizning uzoq o'tmishi, qadimdan o'zining davlatchilik tarixi, madaniyati, san'ati gullab yashnaganligidan dalolat beradi, Bu manzillarning geografik joylashuv o'rniga qarasaq ular asosan Amudaryo va Sirdaryoga juda yaqin bo'lgan manzillarda joylashganligini ko'rishimiz mumkin.

Sababi bu xalqlar u paytga kelib o'troq hayot tarziga o'tib dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan shug'ullanishganlar. O'troqlashib madaniy hayot tarziga o'tilishi o'z navbatida tasviriy san'at, amaliy san'at, haykaltaroshlik, kulolchilik, musiqa kabi tarmoqlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga zamin hozirladi. Yuqoridagi manzilgohlardan topilgan haykallar, devoriy sur'atlar, yozma bitiklardan o'sha davr kishilarining turmush tarzi, urf-odatlarini, davlat boshqaruvi shakllari haqida ma'lumotlar olishimiz mumkin. So'zimizning isboti o'laroq birgina Ayritom manzilgohi hamda u yerdan topilgan devoriy frizlar haqida qisqacha ma'lumot bersak. Ayritom - o'zbek xalqining qadimiy tarixi va madaniyatidan guvohlik beruvchi ko'hna shahar manzilgohlaridan hisoblanadi. Termiz shahridan 18 km sharqda, Amudaryo qirg'og'ida joylashgan. Ayritom moddiy - madaniy yodgorliklari xalqimizning kushonlar davridagi tarixini, madaniy merosini, urf-odatlarini va san'atini o'rganishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston hududidan topilgan dunyogas mashhur qadimiy san'at namunalari orasida Ayritom frizi nomini olgan arxeologiya topilmalari alohida etibor kasb etadi. Friz arxeolog olim M.Ye.Masson tomonidan 1932-1933 yillarda topilib tadqiq qilingan. Marmarsimon ohak qorishmasidan yasalgan bu friz bir paytlar

Termiz yaqinida, Amudaryo qirg'og'idagi Ayritom shaharchasida budda ibodatxonasini bezab turgan (O'sha davrlarda bu hududlarda yashovchi elatlar asosan Buddaviylik diniga e'tiqod qilishgan). Unda beshta musiqachining tasviri tushurilgan bo'lib, ularning yasalgan davri haqida turlicha fikirlar mavjud. Aksariyat tadqiqodchi olimlar uni eramizning I-II asrlarga mansub deb hisoblaydilar. S.P.Tolstov, G.A.Pugachenkova va boshqa olimlarning fikricha, frizda tasvirlangan ayollar mahalliy Baqtriya etnik turiga kiradi. Antik davrga taalluqli bu san'at asari keng miqyosda sharq-yunon madaniyati deb nomlangan turli badiiy an'analar sintezini o'zida namoyon etadi. Unda budda falsafiy g'oyalariga asoslangan yunon va sharqiy hind yoki Gandxar madaniyati uyg'unlashadi. Buddashunos S.F. Oldenburgning arxeolog M.Ye.Massonga aytgan fikricha, besh musiqachi ayoldan iborat haykaltaroshlik kompozitsiyasi budda ta'limotidagi " besh buyuk ovoz" (pancha maxashabda)ni bildiradi. Ularni ko'pincha "samoviy musiqachilar" deb ham nomlashadi. Ushbu murakkab sintezda frizdagi musiqa asboblari alohida ajralib ko'rinadi. Ansambl tarkibida biz yunon, shimoliy hind, ehtimol, Sharqiy Turkiston va mahalliy sozandalik an'analarini ham ko'ramiz. Jumladan, ikki simli puflab chalinadigan cholg'u asbobi - qo'sh avlos Old Osiyo va qadimgi Yunonistonda keng tarqalgan bo'lib, uni yunonlar qadimgi fojialar namoyishida harbiy cholg'u sifatida ishlatishgan. O'rta Osiyo hududida unga o'xshash musiqa asboblari kam uchraydi. Lyutniyasimon gitarani eslatuvchi bu asbob O'rta Osiyoda o'sha davrlardagi tarixiy-madaniy muhit uchun xos bo'lmagan. Shunga yaqin ko'rinishdagilari Sharqiy Turkistonda, qisman Xo'tanda tarqalgan. Boshqacha ko'rinishdagi baraban, shubhasiz, Hindistonga borib taqaladi. To'qqizta torli, burchakli kichik arfa aynan O'rta Osiyo mamlakatlariga xos cholg'u asbobi hisoblanadi. Ayritom frizlari topilganidan bir necha yil o'tib O'zbekiston SSR hukumati ularni Ermitaj muzeyiga hadya qilib yuboradi. Sakkiz qisimdan iborat bo'lgan bu frizlarning uchtasi musiqachilarni aks ettiradi va ular O'rta Osiyo bo'limi ko'rgazmasidan o'rin olgan. Bu friz qolganlariga qaraganda eng yiriklari bo'lib, barabanchi, lyutniyachi va arfachi ayollarni aks ettiradi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, topilmalardan u manzillarda nafaqat haykaltaroshlik va tasviriy san'at

balki musiqa san'ati, hunarmandchilik, arxetektura kabi sohalar ham ravnaq topganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Yurtimizda bunday ko'hna manzillarning ko'pligi ajdodlarimizning butun insoniyat tamadduni, tafakkuri rivojiga qo'gan hissasi naqadar katta ekanligidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda ajdodlarimiz bizga qoldirgan bebaho moddiy, madaniy meros qadimdan markaziy Osiyo hududi dunyo san'ati, madaniyati va ilm-fani takomiliga beqiyos hissa qo'shgan ma'rifat beshigi bo'lganligining dalilidir. Shuni aytib o'tishimiz kerakki, shu kunga qadar millatimiz tarixi o'z boshidan bir necha bor turg'unlik davrlarini ham boshdan kechirdi. O'sha turg'unlik paytlarda millatimizni e'tiqodi, tili, madaniyatiga hujum qilindi ko'plab tarixiy manbaalarimiz, ko'hna yodgorliklarimiz vayron qilindi yoki umuman yo'q qilindi. XIII-asr oxiri XIV-asr boshlarida mo'g'ullar bosqini, XIX-asr oxirlarida rus imperiyasining markaziy Osiyo davlatlariga uyushtirgan bosqinchilik yurishlari hamda XX-asr boshlarida bolshevizm deb ataluvchi mustabit tuzumning hokimiyatga kelishi millatimiz rivojiga mislsiz zarar yetqazdi. Yuzlab millatparvar, ziyoli, jadidchi adiblarimiz, allomalarimiz qatag'on qilindi. Ularning vatanparlik g'oyalari, ular yaratgan nodir asarlari va o'zlariga ham millatchi, xalq dushmani diyilgan qora tang'a bosildi. Ularning millatimizga yetkazgan ma'naviy zararlarining og'ir asoratlari bugungi kunda ham o'zining aksil ta'sirini ko'rsatmoqda. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng yurtimizda ajdodlarimizning merosini tiklash uchun juda ko'p amaliy ishlar olib borildi. Minglab tarixiy manbaalar, tarixiy yodgorlik osori atiqalarimiz davlat muhofazasiga olindi. Ko'plab tarixiy shaharlarimiz va u yerda joylashgan arxeologik yodgorliklarimiz. Bizlarning bugungi kundagi burchimiz ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni avaylab, asrab uni kelajak avlodga bekamu ko'st qilib yetqazishdan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1."Moziydan sado" –ilmiy-amaliy,ma'naviy-ma'rifiy jurnal.2022-2023-yillar sonlari.
- 2."Farg'ona vodiysida muzey ishi va faoliyati" I.Yusupov, I.Karimov. 2022-yil, O'zbekiston Respublikasi .Madaniy meros agentligi.
- 3."Moziy soboqlari" – Alijon Azizov. Namangan- 2021-yil.

4."San'at" jurnali- 2013-yil.

5."Guliston" –ijtimoiy-siyosiy,ilmiy-badiiy,madaniy-ma'rifiy jurnal. 2021-2022-yil.